

## MAYDA BEZORILIK HUQUQBUZARLIKLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI

*Jamoat xavfsizligi universiteti  
Jamoat xavfsizligini ta'minlash  
kafedrasi o'qituvchisi  
A.O.Toshmurodov*

### Аннотация

Mazkur maqolada bezorilik bilan bog'liq huquqbuzarliklarning, xususan, mayda bezorilikning jinoiy-huquqiy va ma'muriy-huquqiy jihatlari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 183-moddasida nazarda tutilgan mayda bezorilik huquqbuzarligining dispozitsiyasi ilmiy asosda sharhlanib, uning tarkibiy elementlari, ya'ni uyatli so'zlar bilan so'kinish, haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini buzuvchi boshqa xatti-harakatlarning mazmuni ochib berilgan.

Shuningdek, maqolada mazkur huquqbuzarlik elementlarining huquqiy tabiati, ularni kvalifikatsiya qilishdagi muammolar, xususan haqorat qilish va mayda bezorilik, shuningdek haqoratomuz shilqimlik va shahvoniy shilqimlik o'rtasidagi farqlar ilmiy nuqtai nazardan asoslab berilgan. Normativ-huquqiy hujjatlardagi mavhum va turlicha talqin qilinishi mumkin bo'lgan dispozitsion iboralar huquqni qo'llash amaliyotida diskresion vakolatlarining kengayishiga olib kelishi, bu esa o'z navbatida shaxslarning huquq va erkinliklariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlangan.

Tadqiqot davomida huquqni qo'llash amaliyotidan olingan misollar asosida mavjud muammolar ochib berilib, normativ-huquqiy hujjatlarda "shu kabi boshqa xatti-harakatlar", "va boshqalar" kabi noaniq iboralardan foydalanishning salbiy oqibatlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** mayda bezorilik, huquqbuzarliklar, ma'muriy javobgarlik, jamoat tartibi, fuqarolar osoyishtaligi, bezorilik jinoyati, huquqiy kvalifikatsiya, huquqni qo'llash amaliyoti, normativ-huquqiy hujjatlar, dispozitsiya, huquqiy noaniqlik, diskretion vakolatlar, haqorat qilish, haqoratomuz shilqimlik, shahvoniy shilqimlik.

### Аннотация

В данной статье комплексно анализируются уголовно-правовые и административно-правовые аспекты правонарушений, связанных с хулиганством, в частности мелким хулиганством. В исследовании научно интерпретируется диспозиция статьи 183 Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности, определяющей мелкое хулиганство, и раскрывается содержание его составных элементов, таких как употребление нецензурной брани в общественных местах, оскорбительное приставание к

гражданам, а также иные действия, нарушающие общественный порядок и спокойствие граждан.

Также в статье с научной точки зрения обоснованы правовая природа указанных элементов и проблемы их квалификации, в частности различия между оскорблением и мелким хулиганством, а также между оскорбительным приставанием и сексуальным домогательством. Подчёркивается, что использование в нормативно-правовых актах неопределённых и допускающих различное толкование формулировок приводит к расширению дискреционных полномочий в правоприменительной практике, что, в свою очередь, может негативно отражаться на правах и свободах граждан.

В ходе исследования на основе примеров из правоприменительной практики выявлены существующие проблемы и обоснованы негативные последствия использования в нормативно-правовых актах таких неопределённых формулировок, как «и иные подобные действия», «и другие», а также аналогичных выражений, допускающих расширительное толкование.

**Ключевые слова:** мелкое хулиганство, правонарушения, административная ответственность, общественный порядок, общественное спокойствие граждан, преступление хулиганства, правовая квалификация, практика применения права, нормативно-правовые акты, диспозиция, правовая неопределённость, дискреционные полномочия, оскорбление, оскорбительное приставание, сексуальное домогательство.

### Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the criminal-law and administrative-law aspects of offenses related to hooliganism, in particular petty hooliganism. The study offers a scientific interpretation of the disposition of Article 183 of the Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Liability, which defines petty hooliganism, and examines the content of its constituent elements, such as the use of obscene language in public places, offensive harassment of citizens, as well as other actions that violate public order and public peace.

The article also substantiates, from a legal-scientific perspective, the legal nature of these elements and the challenges of their qualification, in particular the distinctions between insult and petty hooliganism, as well as between offensive harassment and sexual harassment. It is emphasized that the use of vague and ambiguously interpretable formulations in normative legal acts leads to the expansion of discretionary powers in law enforcement practice, which in turn may negatively affect the rights and freedoms of citizens.

Based on examples from law enforcement practice, the study identifies existing problems and substantiates the negative consequences of using indefinite formulations

in legal acts, such as “other similar actions,” “and other cases,” and similar expressions that allow for broad interpretation.

**Keywords:** petty hooliganism, offenses, administrative liability, public order, public peace of citizens, hooliganism crime, legal qualification, law enforcement practice, normative legal acts, disposition, legal uncertainty, discretionary powers, insult, offensive harassment, sexual harassment.

### Kirish

Bugungi kunda qonunlarga kiritilayotgan o‘zgartish va qo‘shimchalar norma ijodkorligi hamda uning qoidalarini qayta ko‘rib chiqish lozimligini ko‘rsatmoqda. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlardagi noaniqliklar va turlicha talqin qilinishi mumkin bo‘lgan jumalarning qo‘llanishi, huquqni qo‘llash amaliyotidagi turli xildagi talqinlarni sababi bo‘lsa, boshqa tomondan shaxslarning huquq va manfaatlariga putur yetkazuvchi omil sifatida sabliy ta’sir o‘tkazadi.

Ayni diskresion omillar yoki normativ noaniqliklarni o‘rganilayotgan mavzu doirasida tahlil etish tadqiqot mavzusi oldidagi vazifalardan sanalganligi bois bu bo‘yicha atroflicha to‘xtalib o‘tamiz.

Dastlab ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘luvchi mayda bezorilikning O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida nazarda tutilgan dispozitsion ta’rifini sharhlash lozim. Xususan MJtKning 183-moddasida “**Mayda bezorilik**, ya’ni jamoat joylarida uyatli so‘zlar bilan so‘kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik”<sup>1</sup> deb belgilangan.

Dispozitsiyaning mazmunidan ma’lum bo‘ladiki, jamiyatda mayda bezorilik huquqbuzarligi quyidagi elementlardan iborat harakatda ifodalangan belgilarning bo‘lishini talab etadi:

- uyatli so‘zlar bilan so‘kinish;
- fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish;
- jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlar.

Shuningdek, mazkur harakatlar aynan jamoat joylarida sodir etilishi va jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslikda ifodalangan qasd bilan kechishi lozimligini bildirmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan harakatlarning xatto bittasini jamoat joyida yuqorida keltirilgan qasd bilan sodir etilishi mayda bezorilik huquqbuzarligining tarkibini keltirib chiqaradi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // Qonun hujjatlari milliy bazasi // <https://www.lex.uz/acts/97664>

J.A. Djavkashevning fikriga ko‘ra, “Uyatli so‘zlar bilan so‘kinish – shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan tahqirlash shaklida namoyon bo‘lishi mumkin”<sup>2</sup> Ushbu fikrlarga qo‘shilishi mumkin, jumladan shaxsning uyatli so‘zlarni ishlatishi biror-bir shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlashi lozim ya’ni harakat qaratilayotgan ob’ekt aynan o‘zga shaxsni sha’ni va qadr-qimmatini bo‘lishi va bunda ishlatilgan so‘z ham o‘z o‘rnida haqoratli bo‘lishni talab etadi.

M.X.Rustambaevga ko‘ra, uyatli so‘zlar bilan so‘kinish, shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlash turli xatti-harakatlarda masalan: beandishalik bilan so‘kish, turli ibora va mulohazalarni yozish, yuziga tupurish, jabrlanuvchiga nisbatan behayo xatti-harakatlarni va imo-ishoralarni qilishda ifodalanishi mumkin<sup>3</sup>.

Mazkur fikrlarni qo‘llagan holda aytish mumkinki, jamoat joylarida mazkur harakatni amalga oshirilishi aynan aniq shaxsni sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlashga qaratilgan qasd bilan kechishi yoki kechmasligidan qat’iy nazar mayda bezorilik zaruriy tarkibi bilan namoyon bo‘ladi.

A.Abdullaevning fikriga ko‘ra, “Haqorat qilish, insonning hurmati va qadr-qimmatini qasddan yerga urishdir. Qadr-qimmatni yerga urishning o‘zi haqorat qilishda ayblashga asos bo‘la oladi, u aniq bir shaxsqa qaratilgan bo‘lishi kerak. Agar haqorat qilish bir aniq shaxsqa qaratilmagan bo‘lsa, mayda bezorilik deb ma’muriy huquqbuzarlik sifatida baholanadi”<sup>4</sup>.

Ushbu fikrlarga qo‘shilamiz, zero aynan haqoratli so‘zni aniq shaxsqa qaratilishi bu – shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish sifatida baholanishi lozim, biroq olimning fikrlarida mayda bezorilik sifatida jamoat joyida yoki ommaning oldida ushbu haqoratli so‘zni ishlatilishi huquqbuzarlikka sabab bo‘lishi borasidagi kamchilikni to‘ldirish o‘rinli, deb bilamiz.

S.Turemuratovning fikricha, “Ayrim hollarda so‘kish haqorat deb topilishi mumkin. Ammo aynan kimnidir emas, g‘azab, stress holatida yoki umuman boshqacha vaziyatda hech kimga qaratmasdan uyatli so‘zlarni ishlatishi mumkin. Agar ushbu harakat jamoat joylarida, ya’ni odamlar to‘planadigan yoki harakatlanadigan joylarda sodir etilsa bu jamoat joyida uyatli so‘zlar bilan so‘kinish deb topilishi mumkin va javobgarlikka sabab bo‘ladi.”<sup>5</sup>

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra jamoat joylarida uyatli so‘zlar bilan so‘kinilishi aynan biror-bir shaxsning qadr-qimmatini kamsitilishiga qaratilishi shart emas va shu

<sup>2</sup> Djavkashev J.A. Bezorlik jinoyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari // ilmiy maqola CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) DOI: 10.24412/2181-2454-2022-2-535-541 VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2022 B. 535-541

<sup>3</sup> M.X.Rustambaev Jinoyat huquqi (maxsus qism) // Darslik – T., – 2003 B. 154-155

<sup>4</sup> Abdullaev A. Haqorat qilish faqat va faqat to‘g‘ri qasddan sodir etiladi // t.me/Advokat\_Abdullayev.

<sup>5</sup> Turemuratov S., Haqorat qilish va so‘kinish: nima farqi bor? // ilmiy maqola – <https://hudud24.uz/news/khakorat-kilish-va-sukinish-nima-farki-bor>

jihtadan dispozitsiyaning ma’nosiga to’g’ri tadbiiq etilishi nuqtai nazardan ushbu fikrlar asosli, degan xulosaga kelamiz. Ya’ni haqorat qilish bu shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish hisoblanadi. Masalan, kimdir boshqa birovning shaxsini kamsitsa, uni uyatli so’zlar bilan so’ksa, sha’nini “yer”ga ursa bu haqorat qilish, deb topiladi va alohida javobgarlikka sabab bo’ladi. Mayda bezorilikning aynan tarkibi hoh u o’zga shaxsning sha’ni, qadr-qimmatini bo’lsin, hoh umuman hech bir shaxsga qaratilmasin basharti jamoat joyida bunday haqoratli, uyatli so’zlar bilan so’kinilsa ushbu huquqbuzarlikning tarkibi kelib chiqadi.

Tahlil etilayotgan mayda bezorilik huquqbuzarligining keyingi elementi bu – fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish bo’lib hisoblanadi.

J.A. Djavkashev “Fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish – shaxsni hol-joniga qo’ymaslik, unga xiralik qilishda namoyon bo’lishi mumkin”<sup>6</sup> deya ta’rif bergan bo’lsa, I.M.G’ofurjonov bo’lsa, jumlaning ma’nosini izohli talqin qilib, unga “o’zganing qadr-qimmatini mensimasdan hol joniga qo’ymay surkanaverish va xiralik qilishdan iborat harakat” deya ta’kidlaydi<sup>7</sup>.

Yuqoridagi fikrlarning har ikkisi bilan kelishish mumkin, biroq qonunchilikka kiritilgan o’zgartishlar so’ng aynan haqoratomuz shilqimlik bilan shahvoniy shilqimlikni aniq farqlash lozim, aks holda qilmish butunlay boshqa huquqbuzarlik tarkibini tashkil etishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi MJtKning 41<sup>1</sup>-moddasiga ko’ra “Shahvoniy shilqimlik qilish, ya’ni shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo’lgan hamda uning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirleydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo’lgan harakatlarni bir marta qo’pol ravishda yoki bir necha marta sodir etish”<sup>8</sup> deya qayd etilgan.

Demak, jamoat joylarida fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilishda huquqbuzarlik ob’ektini jamoat tartibi bo’lsa, shahvoniy shilqimlik qilishning ob’ekti sifatida o’zganing sha’ni va qadr-qimmatini tashkil etadi. Aynan ushbu jixat huquqbuzarliklarning farqlashning asosiy mezonini bo’lib hisoblanadi.

O’zbek tilining izohli lug’atlarida “shilqimlikka – surbektlik, xiralik qilib surkanish” deya izoh berilgan bo’lib, “sullohlik” so’zi bilan sinonim sifatida ishlatilishi qayd etilgan<sup>9</sup>.

<sup>6</sup> Djavkashev J.A. Bezorilik jinoyati va uning o’ziga xos xususiyatlari // ilmiy maqola Central Asian research journal for interdisciplinary studies (Carjis) Doi: 10.24412/2181-2454-2022-2-535-541 volume 2 | issue 2 | 2022 B. 535-541

<sup>7</sup> G’ofurjonov I.M. Oilaviy (maishiy) zo’ravonlikdan iborat jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning muhim jihatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(8), August, 2023 B. 291-297

<sup>8</sup> O’zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksi // Qonun hujjatlari milliy bazasi // <https://www.lex.uz/acts/97664>

<sup>9</sup> O’zbek tilining izohli lug’ati. E.Begmatov, A.Madvaliev, N.Mahkamov, T.Mirzaev (rahbar), N.To’xliiev, E.Umarov, D.Xudoyberganova, A.Hojiev – T., 2006 – B.547. // <http://n.ziyouz.com>.

Biroq shuni alohida qayd etish lozimki, shaxsning shahvoniy shilqimlik harakatlari aksariyat hollarda jamoat joylarida sodir etilishini inobatga olsak, bir vaqtning o'zida ikkita huquqbuzarlikning ya'ni shahvoniy shilqimlik qilish (MJtK 41<sup>1</sup>) va mayda bezorilik (MJtK 183)larning tarkibini tashkil etadi. Buni malakalashda bugungi kunda huquqni qo'lovchilar huquqbuzarliklar majmui sifatida baholashlari talab etiladi.

Mayda bezorilikning keyingi elementi sifatida – fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik ekanligini inobatga olsak, dispozitsiyadagi mavxumlikni kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Jumladan, jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda sirasiga aynan qaysi harakatlar nazarda tutilganligi biroz mavxum. Garchi ushbu harakatlarda qasd aynan yo'naltirilgan ob'ekt ya'ni jamoat tartibi va fuqarolarning osoyishtaligi belgilanganligi, shuningdek uning sodir etish usuli "jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik"da ifodalanishi qayd etilgan bo'lsa-da uning aniq nimada ifodalanishi "shu kabi boshqa xatti-harakatlar" jumlasini bilan belgilangan. Bu esa o'z navbatida mazkur oqibatlarni keltirib chiqarish mumkin bo'lgan har qanday xatti-harakatni nazarda tutadi.

Ba'zi olimlar jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlarni alohida sharhlash lozimligi borasidagi fikrlarni bildirib, "jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakatlar sodir etish" va "fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi xatti-harakatlar sodir etish" kabi ikki elementga bo'lishni yoqlyadilar<sup>10</sup>.

Bizningcha ushbu fikrlarga qo'shilish imkonsiz, sababi bunda normaning ikki harakatni bir-biriga teng bog'lovchi "va" so'zi ishlatilayotganligi, ya'ni teng bog'lovchi har ikki oqibat bir harakat natijasida kelib chiqishi lozimligini ifodalaydi, shuningdek fuqarolarning osoyishtaligini buzilishi bir vaqtda jamoat tartibini buzish bilan kechishi, ushbu harakatlar bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lgan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

E'tibor qaratish lozim bo'lgan jihat sifatida aytish mumkinki, sharhlangan normaning ayni elementlarigina, ma'muriy huquqbuzarlikning ushbu turi bilan javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shunday bo'lsa-da, bu boradagi huquqni qo'llash amaliyoti normani sub'ektiv sharhlash kabi salbiy holatlarga yo'l qo'yimoqda.

Xususan, 2023-yilning 5-iyun kuni Toshkent shahridagi Mirzo Ulug'bek tumanida fuqaro M.Ya. aholi murojaatini o'rganayotgan "MY5" telekanali muxbiriga nisbatan «Mazangni qochiraman hozir», deb aytganligi uchun, Jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining 2023-yilning 5-iyundagi qaroriga ko'ra MJtKning

<sup>10</sup> Adilov T.B. Jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi mayda bezorilik huquqbuzarligining o'ziga xos xususiyatlari // DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MODERN SCIENCES International scientific-online conference <https://doi.org/10.5281/zenodo.7181036> B.47-49

183-moddasida (mayda bezorilik) nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir qilgan deb topilib, unga 5 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlangan<sup>11</sup>.

Keltirilgan holatda fuqaro M.Ya.ning jurnalistga nisbatan ishlatgan ushbu tazyiqi haqorat sifatida baholangan va jamoat tartibini mensimaslikda ifodalanib, ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Bizningcha bunga quyida qayd etilgan bir qancha omillar sabab bo'lmoqda, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son Qonunining 13-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda diskresion vakolatlarining kengligi va noaniq hamda asossiz havolalarning qo'llanilishi vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar sifatida baholanishi belgilab qo'yilgan<sup>12</sup>.

Xususan, qonun ijodkorligida ayni shunday noaniq va asossiz jumla (havolalar)ning qo'llanilishi, bundan tashqari, huquqiy normaning chegarasini belgilash imkonini bermaydigan, xususan «va boshqalar», «va hokazo» kabi normalarning qo'llanilishi huquqni qo'llovchilarga asossiz ravishda ko'rib chiqish doirasining kengaytirish imkonini beradi. Shu sababdan, noaniq va asossiz havolalar keltirilmasligi hamda normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish tegishli davlat organlarining vakolat doirasida amalga oshirilishi zarur.

Misol uchun: normativ-huquqiy hujjatda "nazorat tadbiri rejali tekshirish davomida, ma'lum bir hududda (mintaqada) zararlanish o'chog'i aniqlanganda, mahsulot import qilinganda va boshqa holatlarda amalga oshiriladi" deya belgilangan bo'lsa, muammo: nazorat tadbiri amalga oshirilishi mumkin bo'lgan holatlarning aniq chegarasi belgilab berilmaganligi, xususan, «va boshqa holatlarda» iborasi qo'llanilishi oqibatida tekshiruvchida asossiz ravishda, tekshirish ob'ekti yoki predmeti doirasiga taalluqli bo'lmagan nazorat-tekshiruvini amalga oshirish bilan bog'liq diskresion vakolatlar vujudga keladi<sup>13</sup>.

Demak qonunchilik va norma ijodkorligida mavxum va turli xilda talqin etilishi mumkin bo'lgan so'zlar hamda jumalardan foydalanish mumkin emas.

Shu bois bezorilik bilan bog'liq barcha huquqbuzarlik turlarida, xususan ma'muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo'luvchi bezorilikning dispozitsion

<sup>11</sup> Javohir Qadamov Toshkentda jurnalistning "mazasini qochirmoqchi bo'lgan" shaxs 5 sutkaga qamaldi // [Toshkentda jurnalistning "mazasini qochirmoqchi bo'lgan" shaxs 5 sutkaga qamaldi | Qalampir.uz](https://qalampir.uz)

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi O'RQ-860-son Qonuni

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyatini tasdiqlash haqida"gi 31.10.2023 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3470 <https://www.lex.uz/uz/docs/6649238>

matnlarida bizningcha quyidagi mavxumliklar va diskresion holatlarga sabab bo‘luvchi matnlar mavjud.

Shu tufayli mazkur tushunchalarni huquqiy sharhlash, huquqni qo‘llash amaliyotini tahlil qilish va natijasiga muvofiq normativ-huquqiy ta’riflar shakllantirish hamda tayanch tushunchalar sifatida normani o‘ziga yoki atamalarning huquqiy ma’nosi aks etuvchi bo‘limga mazkur ta’riflarni kiritish maqsadga muvofiq.

Xulosa o‘rnida tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mayda bezorilik huquqbuzarligi dispozitsiyasida mavjud bo‘lgan ayrim mavhum va noaniq iboralar huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha talqin qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida huquqbuzarliklarni noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklariga salbiy ta’sir ko‘rsatish ehtimolini oshiradi.

Amaldagi qonunchilikda “shu kabi boshqa xatti-harakatlar”, “va boshqalar” kabi iboralarning qo‘llanilishi normaning aniq chegaralarini belgilash imkonini bermaydi hamda huquqni qo‘llovchi subyektlar uchun keng diskresion vakolatlar yuzaga keltiradi. Shu bois mayda bezorilik tarkibini tashkil etuvchi xatti-harakatlarni aniqroq huquqiy mezonlar asosida belgilash maqsadga muvofiq.

Mayda bezorilik va haqorat qilish, shuningdek haqoratomuz shilqimlik va shahvoniy shilqimlik o‘rtasidagi chegaralarni normativ darajada aniq ifodalash zarur. Bu esa huquqbuzarliklarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish va amaliyotda yagona yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda aniqlik va ravshanlik prinsiplariga qat’iy amal qilish, mavhum iboralardan foydalanishni cheklash hamda korrupsiyaviy omillarni keltirib chiqaruvchi normalarni bartaraf etish lozim.

Shuningdek, mayda bezorilikka oid huquqni qo‘llash amaliyotini birxillashtirish maqsadida rasmiy sharhlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi, fuqarolarning huquqiy ongini oshirishga qaratilgan profilaktik choralar kuchaytirilishi zarur.

Mazkur takliflarni amalga oshirish mayda bezorilik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni aniq baholash, huquqiy aniqlikni ta’minlash hamda jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2026.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-860-son Qonuni (2026-yil holatiga ko‘ra amaldagi tahrirda).
4. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2026.

5. Rustambaev M.X. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2026. Rustambaev M.X. Jinoyat huquqi (Maxsus qism). – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2026.
6. Djavkashev J.A. Ma'muriy huquq: darslik. – Toshkent: Adolat, 2026.
7. Abdullaev A. Jinoyat huquqi nazariyasi. – Toshkent: TDYU, 2026.
8. G'ofurjonov I.M. Ma'muriy javobgarlik muammolari. – Toshkent: Fan, 2026.
9. Turemuratov S. Huquqbuzarliklarni kvalifikatsiya qilish muammolari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2026.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2026.
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari (bezorilik va jamoat tartibini buzish ishlari bo'yicha, 2026-yil holatiga ko'ra).
12. O'zbekiston Respublikasi sud amaliyoti materiallari (2024–2026-yillar).
13. Huquqni qo'llash amaliyoti va ilmiy tahliliy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2026.